

Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендируй



ISSN 2181-7138

№ 6/7 - 2022 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия аъзалары:

Мақсат АЙЫМБЕТОВ

Нағмет АЙЫМБЕТОВ

Байрамбай ОТЕМУРАТОВ

Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ

Алишер АЛЛАМУРАТОВ

Дилшодхўжа АЙТБАЕВ

Тўлқин АЛЛАЁРОВ

Умид БаҲАДИРОВА

Фарҳад БАБАШЕВ

Аскар ДЖУМАШЕВ

Гүлнара ЖУМАШЕВА

Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ

Аскарбай НИЯЗОВ

Сабит НУРЖАНОВ

Уролбой МИРСАНОВ

Бахтиёр РАХИМОВ

Арзы ПАЗЫЛОВ

Барлықбай ПРЕНОВ

Қаҳҳор ТУРСУНОВ

Тажибай УТЕБАЕВ

Саодат ТОШТЕМИРОВА

Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ

Ризамат ШОДИЕВ

Зафар ЧОРШАНБИЕВ

Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ

Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестириўшилер:

Қарақалпақстан Республикасы

Халық билимлендириў

Министрлиги, ӨЗПНИИ

Қарақалпақстан филиалы

Ўзбекстан Республикасы

Министрлер Кабинети

жанындағы Жоқарғы

Аттестация Комиссиясы

Президиумының 25.10.2007

жыл (№138) қарары менен

дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз хәм
хабар агентлиги тәрешинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гуўалық
берилген.

Мәнзил: Нөкис қаласы,

Ерназар Алакөз көшеси №54

Тел.: 224-23-00

e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,

mugallim-pednauk@umail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға муўия қайтарылмайды, журналда жарыяланган мақалалардан
изынмен үзінділер «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилюўи
шарт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтында
электрон версиясы менен бирге қабыл етилиди. Мақалада келтирилген маалыматларға автор муўияткер.

МАЗМУН

ТИЛ ҲАМ АДЕБИЯТ

Бабаева Ш.Б. Метод моделирования - прогматический аспект в лингвистике.....	3
--	---

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Norliyev A. Boshlang'ich sinflarda adabiy ta'limning umumnazariy masalalari va o'quvchilarda intellektual anglash malakalarini shakllantirish	10
Pardayeva K.Z., Zamonova Sh.S. Bo'lajak o'qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari	14
Sayfullaev G.M., Sattorova D., Xaitova N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy bilimlar haqidagi tasavvur va tushunchalarni shakllantirish hamda rivojlantirishning uslubiy asoslari	17
Ibrohimova M.F. Boshlang'ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda grafik va jadval ko'rinishidagi topshiriqlardan foydalanish	21
Olloqova O'.M. O'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari.....	24
Qurbonova Sh.N. Boshlang'ich sinf texnologiya darslariga intensiv ta'limni tashkil etish.....	29
Yusufzoda Sh.Y. Alifbe davrida yozuv texnikasini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	34
Жаббарова А.Ш. Бошланғич синфларда бадиий асар эпизодлари масаласи ва эстетик таҳлил методлари.....	38
Пўлотова Ю. Бошланғич синф она тили ва ўқиш дарсларида ахборот-ресурслар интеграциясини таъминлашда ўқитувчи компетентлиги	41
Хайруллаева Д.Н. Методика обучения примерам этнопедагогике на уроках родного языка и читательской грамотности в 1-2-х классах	47
Пўлотова Ю. Бошланғич синф она тили ва ўқиш дарсларида ахборот-ресурслар интеграцияси методик муаммо сифатида	51
Тошпулатова Н. Илмий дунёқарашни шакллантириш ва ўқувчиларни ақлий тарбиялаш (аниқ ва табиий фанлар мисолида)	57
Самиев А.С. Ўқувчиларни маънавий-ахлоқий тарбиясини такомиллаштиришда ҳадис намуналаридан фойдаланиш.....	62
Салохитдинова Н.М. Бошланғич синфларда интеграциялашган таълимни такомиллаштириш технологияси.....	68
Самиев А.С. Ҳадис маънавият ва ахлоқ.....	73
Имонова М.Б. Характер акцентуациясининг деструктив хулқ шаклланишига оиланинг таъсири.....	79
Джуракулова А.Х., Холиқмуродова Д.Х. Бошланғич синф ўқувчиларнинг коммуникатив қобилиятларини шакллантиришнинг психологик ва педагогик хусусиятлари	82
Xidirova M.M. O'quvchi-yoshlarning ma'naviy tafakkurini shakllantirishda oila va mahallaning o'rni.....	86
Yorboboyeva I.B. O'smir yoshdagi o'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik imkoniyatlari.....	91
Kadirova D., Abdullayeva D. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashining nazariy asoslari.....	95
Xoliyorova D.N. Boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanishga doir ilmiy-nazariy qarash.....	101

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Qosimov F.M., Qosimova M.M. Arifmetik masalalarni yechishda tavsiya etiladigan ilmiy-usuliy mulohazalar.....	104
Умарзода Ш.А. “Алгоритмик тиллар ва дастурлаш асослари” фанини ўқитишда замонавий технологиялардан фойдаланиш.....	109
Абдуқодиров Ж.Б. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини физика фани оптикка бўлимига доир ностандарт масалаларнинг мазмун-моҳияти билан таништириш	112

БАСЛАЎШИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Jo‘rayeva M.S. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayonini rivojlanishi, tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatlarini rivojlantirish	117
Xolmirzayeva Sh.M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida steam ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali bolalarda ijodiy faollikni rivojlantirish	120
Tursoatova G.T. Syujetli rolli o'yinlar orqali maktabgacha o'rta yosh guruhi bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirish	124
Xurramova S.A. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarni musiqa yordamida ma'naviy va axloqiy sifatlarini rivojlantirish yo'llari.....	127
Payg'amova J.T. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda aqliy qobiliyatlarini o'stirishda xorij tajribalaridan foydalanish.....	131
Boymurodova S.E. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijtimoiy hissiy rivojlanishi.....	134
Jo‘rayeva N.Z. Maktabda va oilada mehnat tarbiyasini rivojlantirish orqali tadbirkorlik motivatsiyasini shakllantirish	140
Нигматуллаева М.И. Катта ва тайёрлов гуруҳларда коммуникатив ўйинларни ташкил этиш орқали мулоқот кўникмасини шакллантириш	145
Хайруллаева Ш.А. Дидактик ўйинлар орқали болаларни мустақил фикрлашга ўргатишдаги методик имкониятлар.....	151
Пардаева Р.Э. Мактабгача ёшдаги болалар мулоқот маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий психологик хусусиятлари.....	156
Ramatjonova G.B. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ota-onalarning mashg'ulotlar orqali pedagogik-psixologik savodxonligini oshirish	162
Samadova Y.T. Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshdagi bolalarni ijtimoiylashtirishning ta'limdagi o'rni va roli	166

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХӘМ СПОРТ

Махмудова М.Қ. Ёшларни жисмоний тарбия ва спортга жалб қилишда олимпия таълимининг аҳамияти.....	170
Baxriyev J.E. Yosh bokschilarning jismoniy tayyorgarligini amalga oshirish metodlari va ularning mazmuni	175

7. Черокова А.В. Формирование творческой активности студентов специальности «Народное художественное творчество»: Автореф. дис. ... к.п.н. – Шуя, 2010.

REZYUME

Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari yuzasidan fikrlar yoritilgan. Shuningdek media-matnlarni tahlil qilish tanqidiy anglash va yaratish, media-ta'lim hozirgi davrda shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayoni va bo'lajak o'qituvchining media kompetensiyasi unumdorligining zaruriy sharti sifatida ijodiy faoliyat haqida ham ma'lumotlar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются теоретические основы развития медиакompetентности будущих учителей. Также дается информация о медиатекстовом анализе, критическом осмыслении и творчестве, медиаобразовании в современную эпоху, процессе развития личности через средства массовой информации, творческой деятельности как необходимом условии продуктивности медиакompetентности будущего педагога.

SUMMARY

This article discusses the theoretical foundations of the development of media competence of future teachers. Also, information is given about media-text analysis, critical understanding and creation, media-education in the present era, the process of personal development through mass media, and creative activity as a necessary condition for the future teacher's media competence productivity.

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TABIIY BILIMLAR HAQIDAGI
TASAVVUR VA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH HAMDA
RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI**

Sayfullaev G.M.

Bux DU Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti

D. Sattorova

Bux DU Magistri

N. Xaitova

Bux DU Magistri

Kalit so'zlar: *hujayra, tabiiy, biologik, geografik, fizik, kimyoviy.*

Ключевые слова: *клетка, естественный, биологический, географический, физический, химический.*

Keywords: *cell, natural, biological, geographic, physical, chemical.*

Bilish jarayoni jonli mushohada abstrakt tafakkurga, undan esa amaliyotga o'tish bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayon insonni atrof – muhit haqida to'g'ri, ilmiy tasavvur qilish zaruratidan kelib chiqqan. Ilmiy bilish – murakkab dialektik hodisa bo'lib, u inson tafakkurining dunyo mohiyati, uning qonuniyatlari va ularning o'zaro munosabatlarini o'rganishga qaratilgandir. Bilish dialktikasi aksriyat qarama-qarshi fikrlarning echilishi asosida sodir bo'ladi.

XIX asrning tabiatshunoslik sohasidagi yirik tarixiy yutuqlari – hujayraning ochilishi, kimyoviy elementlarning davriy sistemasini aniqlash, Maksvelning elektromagnit nazariyasining yaratilishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi ilmiy yutuqlar atrof – muhit va koinotni bilishda dengizdan bir tomchi ham hisoblanmaydi. Bilish ma'lum davrlar bilan chegaralanib, unga mutlaq etish etish va yaqinlashish jarayoni chegarasizdir. Bilish to'xtovsiz davom etadi.

Inson atrof muhit bilan uzviy bog'liq va o'zaro munosabatda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shunday munosabatlarning tizimi hayotiy jarayonlarning in'kosi hisoblanadi.

Bilim odamlar miyasida o'z-o'zidan paydo bo'lmasdan, balki muayyan ish faoliyatida shakllanadi.

Atrof muhit to'g'risidagi bilimlar boshlang'ich sinflardan boshlab shakllantirila boshlanadi. Tabiiy fanlarning asosiy maqsadi, o'quvchilarni tabiatni kuzatishga o'rgatish, ularda texnologik ko'nikmalari va tabiatga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat. Ana shu muhim talablarni bajarish, avvalo tabiat haqidagi tasavvur va tushunchalarni shakllantirishdan boshlanadi.

Maktab dasturi talablari asosida darslar samaradorligini oshirish, avvalo o'quvchilarning mustaqil kuzatishlarini va amaliy ishlarini to'g'ri tashkil qila olishdadir.

O'quvchilarda u yoki bu tushunchani shakllantirishda narsalar to'g'risida aniq tasavvurlar hosil qilish, o'rganilayotgan materialni atrof muhit bilan bog'lash, hissiy idrok muhim ahamiyatga ega, ya'ni tabiiy fanlarni o'rganish jarayonida olgan bilimlari asosida aniq borliq bilan ongli ravishda munosabat o'rnatishlari lozim. HSuning uchun fanga qiziqtirishning turli yo'llarini qo'llash, o'quv jihozlari vositasida olam va tabiatni umumlashtirib, bir-biriga bog'lab tushuntirish lozim.

Tabiiy fanlar dasturi biologik, geografik, fizik, kimyoviy jarayonlarga oid elementar tushunchalarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Tabiiy fanlar darslarida eng muhim tushunchalarni ajratib tushuntirish ilmiy dunyoqarashning shakllanishini ta'minlaydi. Tabiatdagi hodisalarni bilish bilan undan amaliy maqsadda foydalanish deyarlik bir vaqtda sodir bo'ladi. Fanda keraksiz yangilik, ixtirolar deyarli bo'lmaydi. Fan tarixida o'nlab, ba'zi davrlarda esa yuzlab yillar davomida ilmda keraksiz deb hisoblangan ixtirolar keyinchalik tabiatshunoslikning jahonshumul yutuqlariga aylangan.

Tabiiy ilmiy bilishning asosiy maqsadi haqiqatga erishish demakdir.

Haqiqat insoniyatda mustaqil ravishda shakllanadi. To'g'rilik samimiyat inson ma'naviyatining ajralmas xususiyati bo'lib, haqiqatni aniqlashda katta rol o'ynaydi

Haqiqat va rostgo'ylik fanning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Savolga to'g'ri javob berish, bu haqiqat bo'lib bizning ongimisdan tashqarida chegarasiz dunyo borligi va uning hodisalari ob'ektiv qonunlar asosida sodir bo'lishiga iqror bo'lishimizdan iborat. Haqiqat bilish jarayonining ob'ektiv natijasidir.

Fan tayyor haqiqatlar zahirasi emas, u bilmaslik, chegaralangan taxmin, g'oyadan keng, chuqur, aniq haqiqatga yaqinlashib boraveradi. Bilish, bu-tafakkurning biror ob'ektga to'xtovsiz yaqinlashuvidan iborat. Biror ob'ektni bilishga harakat qilgan olim bilish ilmini cheksiz ekanligiga iqror bo'ladi. Tabiatshunoslik tarixidan ma'lumki, muayyn moddaning xususiyatlari to'liq aniqlangan deb hisoblangan, lekin vaqt o'tishi bilan aynan shu ob'ektning avval o'rganilmagan ilmiy qirralari bor ekanligi aniqlangan. Masalan suvning fizik-kimyoviy va biologik xususiyatlari to'liq go'y to'liq o'rganilgan deb hisoblangan. Keyinchalik suvning oddiy holatidan tashqari, yana uning og'ir suv bo'lishi va rang-barang biologik funksiyalarni bajarishi aniqlangan. Demak haqiqat, bu qat'iy chegaralangan, bilishning oxirgi nuqtasi bo'lmasdan, balki fanning ob'ektga to'xtovsiz yaqinlashib g'oya va tafakkurning bilish jarayonida kengayib, chuqurlashib borishidir.

Haqiqat nisbiy bo'lib, u materiya haqida to'liq ma'lumot bermasdan, balki brogan sari kevgayib, rivojlanib boradi. Bilish pog'onasi fan va amaliyotning rivojlanishi darajasiga bog'liq. Haqiqat muayyan davrning mahsuli hisoblanib, jamiyatning ehtiyojiga qarab, kengayishga, yana tadqiq qilinishga muhtojdir.

Tabiatshunoslik tushunchalari umumiy muhim belgilari bilan birlashtirilgan ob'ektlar, hodisalar jismlarning butun guruhi to'g'risidagi umumlashgan bilimlardir.

Chunonchi, "o'simliklar" tushunchasiga barcha o'simliklar uchun umumiy bo'lgan muhit belgilari bilan bir guruhga birlashtirilgan har xil narsalar kiradi. Ularning hammasi o'sadi, rivojlanadi, nafas oladi, ko'payadi, yani tirik organizm hisoblanadi.

O'quvchilarga tushunchalarni tasavvurlardan farq qila bilishni o'rgatish lozim.

Tasavvur sezgi organlar faoliyatining, xotiraning yoki tasavvur qilishning mahsulidir. Tushunca tafakkur mahsuloti hisoblanadi. Tushunchalar qabul qilinadigan va tasavvur etiladigan narsalar ustida fikr yuritish natijasida vujudga keladi. Tushunchalar o'zida butun narsalar sinfiga taalluqli umumlashgan mazmunni aks ettiradi. Masalan "barg" tushunchasi daraxt, buta, o't o'simliklarda o'sdigan hamma barglarga taalluqlidir.

Tasavvurlar tushunchalarning sezgili asosi hisoblanadi, biroq tasavvurlar bilan tushunchalar o'rtasida keskin chegara yo'q. Tasavvurlar narsalarning muhim xususiyatlarini tobora ko'proq aks ettirib borishi bilan umumlashadi hamda tushunchalarga aylanadi.

Tabiatshunoslik bilimlar inson hayotida har tomonlama ahamiyatga ega. Ilk tabiatshunoslik tushunchalarning qanchalik aniq va mustahkam bo'lishi, bolalar tafakkurining – analiz va sintez, mantiqiy fikrlash, xulosa chiqarish jarayonlarining kuchli bo'lishini ta'minlaydi.

Bizga ma'lumki, oddiy, tabiiy, ekologik, geografik, tushunchalar orqali boshlang'ich sinf oquvchilari atrof muhit haqidagi, Quyosh, Yer, yil fasllari, vaqt va fazo to'g'risidagi, kun va tunlar haqidagi boshlang'ich bilimlarni oladilar. Bu bilimlar kelgusida boshlang'ich sinflar uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Ob'ektlarning xususiyatlarini o'rganish analiz va sintez qilish, taqqoslash va umumlashtirishning eng sodda tuzilishlarini va ular orasidagi munosabatlarni tushunib oladilar.

Ilk sodda tabiat tasavvurlarini shakllantirish natijasida bolalarda:

Kecha va kunduz, yil fasllari, hafta kunlari, vaqt birliklari, predmetlarning shakli haqidagi tushunchalar shakllantiriladi;

Ilk kuzatish ishlari olib boriladi, tabiiy tabiiy tasavvurlarni hosil bo'lishi, munosabatlarni tushinish, geografik tushunchalar shakllantirilib va fazoda mo'ljall olish ko'nikmasi hosil qilinadi;

Ekologiya haqidagi tasavvurlar shakllantiriladi; muhit, iqlim, atrof narsalarning bir-biriga bog'liqligi, yil fasllari haqida tasavvurlar hosil qilinadi; - Ilk tushunchalar o'simlik va hayvonlarning tuzilishi ularni himoya qilish, o'troq va kelib ketuvchi qushlar haqida bilimlar berilib tabiat haqida tushuncha hosil qilinadi.

7-10 yoshli bolalarning tabiatshunoslik tasavvurlarini shakllantirishda ushbu ish muhim o'rin kasb etib oqituvchi va ota-onalar yordam berish maqsadida tayyorlangan bo'lib, unda kichik, o'rta, kata va tayyorlov guruhlarida yil davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar davomida tabiat to'g'risidagi tasavvurlarni batafsil yoritib berilsa maqsadga muvofiqdir. Darslar mavzusi, maqsad- vazifalari, kutilayotgan natijalar, kerakli jixozlar, mashg'ulotlarning borishi jarayonida, matnlarda tabiatshunoslik, ekologik, geografik tushunchalarni yoritilishi maqsadga muvofiqir. Dars davomida mavzular o'quvchilarga soda holda tushuntirilib, amaliy ishlar va turli interfaol o'yinlar yordamida tabiatshunoslik, ekologik, geografik tasavvurlar shakllantiriladi. Har bir darslarning oxirida bolalarning bilimlarini aniqlashda va mustahkamlash uchun savollar berishi maqsadga muvofiqdir.

Dars jarayonida o'quvchilar mustaqil amaliy topshiriqlarni bajarib, turli interfaol usullar yordamida topshiriqlarni yechib, o'yinlarni o'ynab, ijod qilgan holda yangi tabiatshunoslik tushunchalarni o'rganib, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlab boradilar.

Ilk tabiiy fanlar haqidagi tushunchalar o'quvchilarning yoshiga mos tarzda qiziqarli qilib o'zgartirilsa, samarali natijalarga erishiladi. Jamoa bilan kelishishni, birgalikda ishlashni, o'zaro bir-birini qo'llab quvvatlashni, yordamlashishni, jamoada o'zini tuta olishni o'rganadilar va bolalarda o'ziga bo'lgan ishonch, mustaqil fikrlash, o'z fikrini aniq ifoda eta olish kabi fazilatlar shakllanadi.

Shu sababli ushbu maqola o'qituvchi va ota-onalarga bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda juda kata qulayliklar yaratadi. Bu esa bolalarni maktabda muvaffaqiyatli oqishlariga zamin tayyorlaydi.

Mashg'ulotlarda bolalar bilimlarini kengaytirishda yo'naltirilgan, ishtirok etishga mo'ljallangan quyidagi interfaol usullardan foydalanish mumkin.

- . Kuzatish
- . Tushuntirish
- . ko'rsatish
- . Guruhlarda ishlash
- . Juftlikda ishlash
- . Tabiatga sayr
- . 'Muammoli vaziyat
- . Savol-javob
- . Rag'batlantirish
- . amaliy ish
- . Ijidorlik
- . Bilimlarni mustahkamlash uchun o'yin
- . Masala tuzish, yechimini toppish
- . Grafik diktant

Bu usullar mashg'ulotlarda almashinib kelgan holda qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu maqola boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar yil fasllari haqidagi, tushunchalarni shakllantirish, Quyosh, oy, yulduzlar, kun va tun geografik tushunchalar, shakllar, vaqt va fazo haqida, ekologik atamalar haqida

Boshlang'ich bilimlarni egallashlari uchun materiallar yetarli darajada va qiziqarli qilib berilgan.

Mavzu: Yil fasllari bilan tanishtirish va fasllarning nomini to'g'ri aytishga o'rgatish

Maqsad:

- . Bolalarda yil fasllari – qish, bahor, yoz, kuz haqida tushuncha.
- . Bolalar qish, bahor, yoz, kuz, yil fasllari so'zlarini nutqda tushungan holda qo'llash ko'nikmasini egallaydilar.

Kerakli jihozlar:

- . Yil fasllar tasvirlangan suratlar
- . 4 xil rangdagi doira shakli
- . Bo'yi 12 sm, eni 20 sm o'lchamdagi qog'ozda tugallanmagan rasmlar (har xil bolaga).

Mashg'ulotning borishi; Tarbiyachi: Bolalar, hech e'tibor berganmisiz, bazida havo issiq bo'ladi, ba'zida yomg'ir yog'adi, ba'zida havo sovuq bo'lib qor yog'adi. Tabiatdagi bu o'zgarishlar ma'lum vaqtlarda bo'ladi va bu vaqtlarning o'z nomi bor.

Hozir sizlarga topishmoq aytaman, topishmoq nima haqida ekanligini topasizlar:

Kelib ketar bir yilda, to'rt og'aynilar. (To'rt fasl)

Bolalar topishmoqni topganlaridan keyin tarbiyachi fasllar tasvirlangan suratlarni ko'rsatib fasllar haqida to'liq tushuncha beradi va so'raydi:

- . Bolalar, bahor, yoz, kuz, qishni birgalkda qanday atashimiz mumkin?

(Bolalarning javoblari).

- . Bolalar, hozir qaysi fasl? (Bolalarning javoblari)

Oqituvchi: Bolalar, hozir sizlar bilan "Fasllar" o'yinini o'ynaymiz. Bolalar doira bo'lib o'tiradilar va navbat bilan "qish", "bahor", "yoz", "kuz", deb fasllarni aytib chiqadilar. O'qituvchi boshlovchi bo'ladi. Boshlovchi "bahor" desa, "bahor" so'zini aytgan bolalar o'rnidan turib, joylarini almashtiradilar. Boshlovchi ko'rganlarining bittasini o'rniga o'tirib olishi lozim. O'tira olmagan bola boshlovchi bo'ladi va boshqa faslning nomini aytadi. O'yin shu tarzda davom etadi.

Bolalar uchun amaliy ish.

Bolalarga 4 ta faslni bildiruvchi 4 xil rangdagi doira shakli beriladi: rasm, yashil-bahor, qizil-yoz, sariq-kuz, oq –qish har bolaga bittadan tugallanmagan rasm beriladi. Bolalar ranglardan birini olib- fasllardan birini tanlaydilar va shu faslni tasvirlab tugallanmagan

rasmni tugatadilar. Amaliy ish yakunida bolalar qaysi faslning tasvirlanganlarini va bu fasl boshqa fasllardan shunday jihatlari bilan farq qilishini aytadilar. Har bir bola 1 ta jihatni aytadi.

Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar:

1. Fasllarning nomini bilib oldingizmi? Aytib bering-chi?
 2. Qish bilan bahor, yoz va kuzni birgalikda qanday nomlashimiz mumkin?
 3. Bir yilda nechta fasl bor?
 4. Bahordan keyin qaysi fasl keladi?
 5. Kuzdan keyin qaysi fasl keladi?
 6. Yozdan keyin qaysi fasl keladi?
 7. Qishdan keyin qaysi fasl keladi?
 8. Bahor va kuz fasllari o'rtasida qaysi fasl bor?
 9. Sizga eng yoqadigan fasl qaysi? Nima uchun?
 10. Kuz va bahor fasllarining orasida qaysi fasl bor?
- Dars yakunida o'quvchilarni rag'batlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D. Sharipova, D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.
2. A. Baxronov, Tabiatshunoslik 3-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Cho'lpon NMIU 2012 y.
3. A. Baxronov Tabiatshunoslik 4-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Sharq NMIU 2011 y.
4. P. G'ulomov, Mirzaaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf uchun darslik. T; Cho'lpon NMIU 2012 y.
5. G.M. Sayfullaev. Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. O'quv qo'llanma Buxoro-2020.

REZYUME

Bu maqolada boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida o'quvchilarda tabiatshunoslik tasavvur va tushunchalarni shakllantirish usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация о методах формирования естественнонаучных представлений и понятий у учащихся начальных классов естественных наук.

SUMMARY

This article provides information on the methods of formation of natural science ideas and concepts in primary school students of natural sciences.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MANTIQUIY TAFAKKURNI
RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK VA JADVAL KO'RINISHIDAGI
TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH**

Ibrohimova M.F.

Buxoro Davlat Universiteti o'qituvchisi

Kalit so'zlar: mantiqiy tafakkur, mantiq, mantiqiylik, mantiqiy topshiriq, boshlang'ich ta'lim.

Keywords: logical thinking, logic, logicality, logical task, primary education.